

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON


2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN’IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUV LAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUV LARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIV LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUV LAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzбек Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

Saidov Mash'al Samadovich

Alfraganus universiteti, Menejment va marketing kafedrası professori,
Iqtisodiyot fanları doktori (DSc), professor

Soliyev Rahmatjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari va uning raqobatbardoshlikka ta’siri yoritilgan. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida sifat nazorati va menejment tizimlarining roli, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, xodimlar malakasini oshirish orqali mahsulotning iste’molchi talablariga mosligini ta’minlash muhimligi tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, erkin bozor tamoyillarini qo‘llash va korxonalar o‘rtasida samarali raqobat asosida iqtisodiy o‘sishga erishish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ishlab chiqarish sohasida sifat va raqobat muhitining uyg‘unlashuvi korxonaning barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mahsulot sifati, sifat nazorati, raqobat muhiti, ishlab chiqarish, innovatsiya, sifat menejmenti, raqobatbardoshlik, bozor iqtisodiyoti, texnologik modernizatsiya, xodimlar malakasi, sog‘lom raqobat, korxona rivoji.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные направления повышения качества продукции на производственных предприятиях и его влияние на конкурентоспособность. Анализируется роль систем контроля качества и менеджмента в современном производственном процессе, важность внедрения инновационных технологий и повышения квалификации персонала для обеспечения соответствия продукции требованиям потребителей. Также рассматриваются пути формирования здоровой конкурентной среды, применение принципов свободного рынка и достижение экономического роста на основе эффективной конкуренции между предприятиями. Обосновано, что синергия качества и конкурентной среды в производственной сфере способствует устойчивому развитию предприятия и расширяет его возможности выхода на международные рынки.

Ключевые слова: качество продукции, контроль качества, конкурентная среда, производственное предприятие, инновации, управление качеством, конкурентоспособность, рыночная экономика, технологическая модернизация, квалификация персонала, здоровая конкуренция, развитие предприятия.

Abstract

This paper discusses the main directions for improving product quality in manufacturing enterprises and its impact on competitiveness. The role of quality control and management systems in modern production, the importance of

implementing innovative technologies, and improving the qualifications of employees to ensure that products meet consumer demands are analyzed. Additionally, the ways of forming a healthy competitive environment, applying free market principles, and achieving economic growth through effective competition among enterprises are explored. It is justified that the synergy of product quality and a competitive environment in the production sector contributes to the sustainable development of enterprises and enhances their opportunities for entering international markets.

Keywords: product quality, quality control, competitive environment, manufacturing enterprise, innovation, quality management, competitiveness, market economy, technological modernization, employee qualifications, healthy competition, enterprise development.

KIRISH

Ishlab chiqarish sohasi har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu sohaning muvaffaqiyati mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bevosita bogʻliq. Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatning keskin kuchayib borayotgani ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirishni, texnologik yangiliklarni joriy etishni va mahsulot sifatini uzluksiz oshirib borishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardosh muhitni shakllantirish har bir ishlab chiqarish korxonasi uchun strategik ahamiyatga ega boʻlib, nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham barqaror oʻsishni taʼminlaydi.

Mahsulot sifati har bir ishlab chiqaruvchi uchun asosiy ustuvor yoʻnalish sanaladi. Yuqori sifatga erishish — bu nafaqat isteʼmolchi talablariga javob beruvchi mahsulot yaratish, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish tizimlarini optimallashtirish imkonini beradi. Sifatli mahsulotlar mijozlarning ishonchini oshiradi, korxonaning brendini mustahkamlaydi va bozordagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim rol oʻynaydi.

Sifatni yaxshilash yoʻlida korxonalar samarali sifat nazorati tizimlarini joriy etishlari, ilgʻor texnologiyalardan foydalanishlari, xodimlar malakasini oshirish hamda xomashyo sifatini yaxshilash choralari koʻrishlari zarur. Ushbu omillar nafaqat mahsulot sifatining oʻsishiga, balki ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, xarajatlarning kamayishiga va ekologik barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Natijada, korxonalar bozorda raqobatbardosh mahsulotlar taklif eta oladi va barqaror oʻringa ega boʻladi.

Shu bilan birga, raqobat muhiti iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biridir. Raqobat mavjud boʻlgan sharoitda korxonalar oʻz mahsulotlarini uzluksiz takomillashtiradi, yangi texnologik yechimlar izlaydi va xarajatlarni qisqartirishning samarali usullarini qoʻllashga harakat qiladi. Bunday sogʻlom raqobat bozorda rivojlanishni taʼminlash, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi ish oʻrinlarini yaratishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bu jarayonlar orqali bozor barqaror ishlaydi, mahsulot turlari koʻpayadi va narxlar muvozanatda boʻladi.

Bundan tashqari, raqobat innovatsion faoliyatni kuchaytiradi. Korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqishga intiladilar. Bu borada davlat tomonidan yaratiladigan qulay huquqiy va iqtisodiy muhit, jumladan, imtiyozlar va ragʻbatlantiruvchi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda ishlab chiqarish sohasida sogʻlom raqobat muhitining shakllanishi texnologik yangiliklarning keng tarqalishiga va resurslardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida sifat va raqobat muhiti oʻrtasidagi uygʻunlik barqaror rivojlanishni taʼminlash va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarurdir. Mahsulot sifatining oshishi va raqobatbardoshlikni yaxshilash orqali korxonalar oʻz resurslarini samarali ishlatish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va bozor talablariga tezkor javob berish imkoniga ega boʻladilar. Bu, oʻz navbatida, kompaniyaning global raqobatdagi oʻrnini mustahkamlashga yordam beradi va oʻz vaqtida bozorlar uchun yangi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari va metodlari tahlil qilinadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish, xodimlar malakasini oshirish va bozor sharoitlarida raqobatni ragʻbatlantirish kabi masalalar oʻrganiladi. Maqsadimiz — sifatni oshirish va raqobatni kuchaytirish orqali ishlab chiqarish sohasida barqaror rivojlanish va iqtisodiy oʻsishga erishish yoʻllarini aniqlashdir. Shu bilan birga, maqolada ishlab chiqarish jarayonlarida samarali boshqaruvni taʼminlash, sifatni boshqarish va raqobatni muvofiqlashtirishning amaliy jihatlari koʻrib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahsulot sifatini oshirish — ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, xaridor talablariga mos mahsulotlar yaratish hamda bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositalaridan biridir. Sifatni boshqarish va nazorat qilish tizimlari ishlab chiqarish korxonalarida raqobat ustunligini qoʻlga kiritish uchun muhim rol oʻynaydi. Soʻnggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar mahsulot sifatini oshirishda tizimli, strategik va innovatsion yondashuvlarning dolzarbligini taʼkidlamoqda.

J. Juran sifatni boshqarish sohasida tizimli yondashuv asoschisi sifatida tan olingan. Uning fikricha, mahsulot sifatini oshirish jarayoni quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga olishi lozim: sifatni rejalashtirish, sifatni nazorat qilish va sifatni doimiy ravishda takomillashtirish. Juran sifat menejmenti tizimini shakllantirishda rahbariyatning faol ishtirokini, sifatlilikka yoʻnaltirilgan strategik qarorlar qabul qilinishini muhim deb hisoblaydi [1].

ISO 9001:2015 standarti mahsulot sifatini boshqarish boʻyicha xalqaro miqyosda tan olingan tizim boʻlib, u sifatni tizimli ravishda boshqarish va mijoz talablariga muvofiqlikni taʼminlashni nazarda tutadi. Ushbu standart ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlik, tartib va oʻlchovlilik asosida tashkil qilishga yordam beradi. Korxonalar ISO 9001 sertifikatini orqali nafaqat sifatni kafolatlaydi, balki global bozorlarda raqobatga kirishish imkoniyatini ham qoʻlga kiritadi [2].

Umumiy sifat menejmenti (TQM – Total Quality Management) konsepsiyasi korxonaning barcha bo‘limlari va darajalarida sifatni oshirishga qaratilgan. TQM yondashuvi nafaqat ishlab chiqarish, balki marketing, xizmat ko‘rsatish, logistika va boshqa operatsion faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv orqali korxona ichida sifat madaniyati shakllanadi, bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishga olib keladi [3].

Raqobat muhiti va raqobatbardoshlikni ta‘minlash nazariyasi ham mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan “Raqobatning beshta kuchi” modeli (Porter’s Five Forces) korxonaga o‘z bozor pozitsiyasini baholash va strategiyasini shakllantirishda yordam beradi. Ushbu model bozor kuchlarini quyidagi omillar orqali tahlil qiladi: mavjud raqobatchilar, yangi raqiblarning kirib kelish ehtimoli, xaridorlarning savdo kuchi, yetkazib beruvchilarning kuchi va o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning tahdidi. Porter sifatli mahsulot, samarali xarajatlarni boshqarish va innovatsiyalarni asosiy raqobat strategiyalari sifatida ko‘rsatadi [4].

Innovatsion yondashuvlar, ayniqsa, K. Kristensen tomonidan ilgari surilgan “disruptive innovation” (inqilobiy innovatsiyalar) konsepsiyasi zamonaviy raqobatbardosh korxonalar uchun muhim hisoblanadi. Bu modelda yangi, ilg‘or texnologiyalar orqali mavjud bozorlarni o‘zgartirish yoki yangi segmentlarni yaratish orqali ustunlikka erishish mumkinligi ko‘rsatilgan. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar ehtiyojlariga mos mahsulotlarni taqdim etish imkonini yaratadi [5].

Xulosa qilib aytganda, mahsulot sifati va raqobat muhiti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ishlab chiqarish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida asosiy omil hisoblanadi. Yuqori sifatli, innovatsion mahsulotlar nafaqat iste‘molchilar ehtiyojini qondiradi, balki kompaniyaning bozor ulushini kengaytiradi va global raqobatda ustunlikni ta‘minlaydi. Sifat menejmenti tizimlari, zamonaviy standartlar va strategik yondashuvlar esa ushbu jarayonning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolada sifatli va miqdoriy usullarni birlashtirib, mahsulot sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirishning amaliy va ilmiy jihatlarini tahlil qilish nazarda tutiladi. Bu metodologiya o‘zgaruvchan va murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilishga imkon beradi hamda amaliyotni yanada samarali qilish uchun kerakli strategiyalarni taklif etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning ishlab chiqarish sohasidagi mahsulot sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish masalalari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati iqtisodiy islohotlar orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga alohida e‘tibor bermoqda. Mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning asosiy yondashuvlari ishlab chiqarish

samaradorligini oshirish, xalqaro bozorlar bilan raqobat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda sanoat korxonalari uchun sifatni boshqarish tizimlari, masalan, ISO 9001 va TQM kabi zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda. Bu tizimlar yordamida korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sifatni nazorat qilish va mahsulotni bozor talablariga moslashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Biroq, raqobat muhitini shakllantirishda ayrim korxonalar o'rtasida raqobatning zaifligi va innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi muammo sifatida qolmoqda. O'zbekistonda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari hali ham eski texnologiyalarga tayanib ishlamoqda, bu esa mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqobat muhitining shakllanishi ham ahamiyatli omil hisoblanadi. O'zbekistonda raqobatni kuchaytirish uchun hukumat tomonidan erkin bozor tamoyillari va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ayrim sanoat tarmoqlarida raqobatning sust rivojlanishi va monopoliyalarning mavjudligi bozorning to'liq erkinlashishiga to'sqinlik qilmoqda. Raqobatning kuchayishi, ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning turtkisi bo'lishi mumkin.

Sifatni boshqarish tizimlari va sifatni oshirish: O'zbekistonda ko'plab ishlab chiqarish korxonalari ISO 9001 va TQM kabi sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga harakat qilmoqda. Bu tizimlar korxonalarda mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mijozlar talablariga javob berish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq, bu tizimlarning to'liq joriy etilishi va ularning samarali ishlashini ta'minlashda ba'zi muammolar mavjud. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarida xodimlarning malakasi va tajribasi zarur darajada bo'lmisligi mumkin.

Raqobatbardoshlikni oshirish: O'zbekistonning ishlab chiqarish sanoatida raqobat muhitini shakllantirishda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlangan islohotlar, xususiy sektorning rivojlanishi va raqobatni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mahsulot sifatini oshirishga turtki bo'lmoqda. Biroq, ayrim sanoat tarmoqlarida monopoliyalar va raqobatning yetarlicha rivojlanmasligi hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Sifat madaniyatining pastligi (53%) tashkil etadi va ko'rinib turibdiki, aksariyat ta'lim muassasalarida sifat menejmenti faqat nazorat jarayoni sifatida qabul qilinmoqda. Aslida esa, sifat madaniyati doimiy rivojlanish va jarayonlarni takomillashtirish tamoyillariga asoslangan tizimli yondashuv bo'lishi lozim.

Innovatsion texnologiyalar: O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish samarali mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda ba'zi tarmoqlarda, masalan, avtomobil sanoati va oziq-ovqat sanoatida texnologik yangilanishlar amalga oshirilgan. Bu yangilanishlar korxonalarga mahsulot sifatini yaxshilash va bozor raqobatida ustunlikni qo'lga kiritishda yordam bermoqda.

Xodimlar malakasi: O'zbekistonning ishlab chiqarish korxonalarida xodimlar malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish orqali

mahsulot sifatini oshirish imkoniyatlari mavjud. Hozirda korxonalarda malaka oshirish kurslari va o'quv dasturlari yo'lga qo'yilgan, ammo bu jarayonni yanada kengaytirish va barcha sohalarida joriy etish zarur.

Iqtisodiy o'sish: Mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda. Biroq, bu jarayonning yanada rivojlanishi uchun ishlab chiqarish tarmoqlarida sifatni boshqarish va raqobatni kuchaytirishga doir qo'shimcha islohotlar va yangi strategiyalarni amalga oshirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globalashuv va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining muvaffaqiyati va barqaror faoliyati ko'p jihatdan mahsulot sifati va raqobatbardoshligiga bog'liq. Mahsulot sifatini oshirish esa, o'z navbatida, nafaqat texnik jihatlarni yaxshilash, balki boshqaruv, kadrlar, texnologiyalar, innovatsiyalar va bozor talablari bilan uzviy bog'liq kompleks yondashuvni talab qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tahlillar mahsulot sifati va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ochib bermoqda.

Birinchidan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish korxonaning ichki jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ishonchli ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga imkon yaratadi. Sifatni oshirish uchun korxonalar tomonidan xalqaro standartlar (masalan, ISO 9001), sifat menejmenti tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish jarayonlari keng joriy etilmoqda. Bularning barchasi mahsulotning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash va mijozlar ishonchini qozonishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, raqobat muhitining shakllanishi ishlab chiqaruvchilarni yangilanishga, izlanishga va o'z mahsulotlarini doimiy ravishda takomillashtirishga undaydi. Sog'lom raqobat — bu narx siyosati, sifat, xizmat ko'rsatish madaniyati va innovatsion yechimlar orqali bozorning tabiiy tanlov mexanizmini shakllantiruvchi asosiy omildir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar raqobat muhiti uchun qulay zamin yaratmoqda. Xususan, ishlab chiqarish korxonalariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, texnologik yangilanishga moliyaviy yordamlar berilishi bu boradagi ijobiy siljishlarga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, xodimlarning malakasini oshirish, bilim va ko'nikmalarini zamon talablari darajasida rivojlantirish sifatni oshirishning muhim omillaridan biridir. Korxonalarda doimiy o'quv-trening dasturlarining mavjudligi, kasbiy rivojlanish uchun sharoit yaratish, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash — korxona ichki madaniyatining asosiy elementiga aylanmoqda. O'zbekiston misolida aytadigan bo'lsak, texnikumlar, kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bilan sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

To'rtinchidan, mahsulot sifatini oshirish va raqobat muhitini yaratishda davlat tomonidan belgilangan strategiyalar va normativ-huquqiy bazaning mustahkamligi alohida o'rin tutadi. Hukumat tomonidan ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilayotgan

qulay shart-sharoitlar, erkin iqtisodiy zonalar, bojxona va litsenziyalash tartiblarining soddalashtirilishi milliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro maydonga olib chiqishda muhim rol o'ynamoqda.

Beshinchidan, tadqiqot davomida aniqlanishicha, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash orqali:

- Ichki bozorni import mahsulotlardan himoya qilish;
- Milliy brendlar va ishlab chiqaruvchilarning xalqaro obro'sini oshirish;
- Eksport salohiyatini kengaytirish;
- Iqtisodiy barqarorlik va aholi bandligini oshirishga erishish mumkin.

Shu bois, ishlab chiqarish korxonalarining kelgusi faoliyatida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi: ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va doimiy modernizatsiya qilish; mahsulot sifatini nazorat qilish bo'yicha zamonaviy tizimlarni joriy etish; xalqaro sifat standartlariga muvofiq sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish; raqobatni rag'batlantiruvchi institutsional muhitni kuchaytirish; kadrlar salohiyatini mustahkamlash va innovatsion tafakkurni rivojlantirish. Mahsulot sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish orqali O'zbekiston ishlab chiqarish sohasida nafaqat ichki ehtiyojlarni qondira oladigan, balki eksportga yo'naltirilgan, xalqaro standartlarga mos va barqaror rivojlanishga tayyor sanoat tarmog'ini shakllantirishga erishadi. Bu esa mamlakatning global iqtisodiyotdagi mavqeyini kuchaytirishga, milliy brendlarni dunyo bozorida tanitishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Juran, J.M. (1989). Juran on Leadership for Quality: An Executive Handbook. Free Press.
2. ISO (2015). ISO 9001:2015 – Quality Management Systems – Requirements. International Organization for Standardization.
3. Oakland, J.S. (2003). Total Quality Management: Text with Cases. Butterworth-Heinemann.
4. Porter, M.E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.
5. Christensen, C.M. (1997). The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business Review Press.
6. Burkhanova L. GROUNDS FOR ESTABLISHING THE FACT OF THE UNKNOWN ABSENCE OF AN INDIVIDUAL UNDER THE CIVIL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.
7. Шапахметова У. Issues of improving the regulation of circumstances preventing marriage in family law //Юридик фанлар ахборотномаси. – 2017. – №. 2. – С. 50-53
8. Эскерова, З. А. Основные инструменты в арсенале статистических методов контроля качества продукции. Вестник КарГУ – 2023 г – с. 90



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**